

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

RAHMATOV ASILBEK RAHMAT O‘G‘LI

**QURILISH MAYDONLARIDA SEYSMIK TA‘SIRNI BAHOLASH UCHUN
SINTETIK AKSELEROGRAMMAR YARATISH TEXNOLOGIYASI**

04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rahmatov Asilbek Rahmat o‘g‘li

Qurilish maydonlarida seysmik ta’sirni baholash uchun sintetik akselerogrammalar yaratish texnologiyasi.....3

Рахматов Асилбек Рахмат угли

Технология создания синтетических акселерограмм для оценки сейсмических воздействий на строительных площадках.....21

Rahmatov Asilbek Rahmat ugli

Technology for creating synthetic accelerograms to assess seismic impact at construction sites.....43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

RAHMATOV ASILBEK RAHMAT O'G'LI

**QURILISH MAYDONLARDA SEYSMIK TA'SIRNI BAHOLASH UCHUN
SINTETIK AKSELEROGRAMMAR YARATISH TEXNOLOGIYASI**

04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM1219 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Seysmologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.seismos.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Vaxitxan Alixanovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xamidov Lutfulla Abdullaevich
fizika-matematika fanlari doktori

Kuchkarov Kaxramon Israilovich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Seysmologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "25" iyul soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; E-mail: seismologiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (№ 1156-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "11" iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil "11" iyuldagi 15-raqamli reestr bayonnomasi)



K.N. Abdullabekov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi v.v.b.,
f.-m.f.d., professor, akademik

Z.F. Shukurov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.-m.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD)

A.I. Tuychiev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida kuchli zilzilalar oqibatida yuzaga keladigan talafotlarni kamaytirish hamda aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlashda, seysmik faolligi yuqori bo'lgan mintaqalarda qurilayotgan bino va inshootlarning zilzilabardoshliligini oshirishda jahon standarti hisoblangan Yevrokod talablariga muvofiq sintetik akselerogrammalardan foydalanish zilzila o'choq mexanizmlarining fizik-geologik xususiyatlari, gruntlarning murakkab muhandis-geologik sharoitlari hamda seysmik tebranishlarning tarqalish dinamikasini tahlil qilgan holda real seysmik ta'sirni aniq modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda zamonaviy muhandislik dasturlaridan foydalangan holda yaratilgan sintetik akselerogrammalar asosida bino va inshootlarga ta'sir etuvchi ehtimoliy seysmik yuklamalarni baholash, ularning zilzilabardoshligini aniqlash va shunga muvofiq mustahkam konstruksiyalarni loyihalash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, har bir mintaqaga xos geologik-tektonik va seysmik sharoitlarni chuqur tahlil qilish, ilg'or raqamli texnologiyalar yordamida sintetik akselerogrammalarni yaratish orqali tabiiy zilzila ta'sirini real sharoitga yaqin holda baholash, qurulish va loyihalash ishlarida dinamik hisob-kitoblar bilan seysmik bardoshlikni oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda bino-inshootlarni loyihalash va qurushda turli grunt sharoitlarini hisobga olgan holda yaratilgan sintetik akselerogrammalardan seysmik ta'sir sifatida foydalanishga doir ilmiy izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Jumladan, zamonaviy texnologiyalar asosida, ya'ni muhandislik dasturlari orqali respublikamizning yirik shahar hududlarida tarqalgan turli xil grunt qatlamlarini seysmik ta'sirlarga javob berishi aniqlangan va sintetik akselerogrammalari ishlab chiqilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida, jumladan "...ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash..."¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qurilish maydonlaridagi grunt zaminlariga bo'ladigan seysmik ta'sirni oldindan baholash uchun sintetik akselerogrammalar texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi "Seysmologiya, seysmik chidamli qurilish hamda O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3190-son Qarori, 2020 yil 30 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4794-son Qarori, 2023 yil 16 maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-158-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikaning fan va texnologiyalarni rivojlantirish – VIII “Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda seysmik faol hududlarda bino-inshootlarni qurishda qurilish maydonlarining seysmik ta‘sirini aniqlash uchun foydalaniladigan sintetik akselerogrammalarni ishlab chiqish juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek sintetik akselerogrammalarni qurilish-loyihalash ishlarida keng joriy qilish bo‘yicha dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu muammo bilan turli davrlarda Y.A. Nakamura, H.M. Murakami, F.F. Aptikayev, K. Rodjan, N.I. Frolova, O.O. Erteleva, V.I. Bagdanov, V.M. Grayzer va N.V. Shebalin, W.B. Joyner, D.M. Boore, K.W. Kampbell, L. H. Kanai, N.A. Ambraseys, A. K. Kornell, A.A. Tikhonov, Yu.A. Koval, N.A. Kostiuk, A.G. Egorov, T.U. Artikov, Yu.K. Chernov, V.Yu. Sokolov, A.X. Ibragimov, R.S. Ibragimov va V.A. Ismailov kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Y. A. Nakamura – gruntlarning reaksiya spektrlari va yer yuzasining shakli haqida tadqiqotlar olib borib, bu sohaga o‘z hissasini qo‘shgan. H.M. Murakami – gruntlarning dinamik xususiyatlari va reaksiya spektrlarini o‘rganishda muhim tadqiqotlar olib borgan. F.F. Aptikayev va O.O. Erteleva o‘z tadqiqotlarida seysmik tebranishlarning paydo bo‘lish qonuniyatlarini aniqlash, tebranish parametrlarini bir-biri bilan, ya‘ni manba va atrof-muhit parametrlari bilan bog‘lashga qaratganlar. K. Rodjan ilmiy ishlarida ehtimollik asosida instrumental o‘lchovlarga asoslangan seysmik shkalani yaratish, kuchli harakatlarga xos bo‘lgan ba‘zi noma‘lum yoki kam ma‘lum bo‘lgan chiziqli hodisalarni aniqlash va baholashga e‘tibor qaratgan. N.I. Frolova ilmiy faoliyati davomida qurilishda bino va inshootlarni loyihalash uchun mintaqaviy javob spektri usulini ishlab chiqqan va olingan natijalarni taklif sifatida loyihalash institutlariga tavsiya qilgan. V.I. Bagdanov, V.M. Grayzer va N.V. Shebalin kabi olimlar kuchli zilzilalar vaqtida seysmogrammalardan foydalangan holda gruntlardagi qoldiq siljish va haqiqiy harakatlarni aniqlash bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. W.B. Joyner va D.M. Boore o‘z ilmiy ishlarida zilzilalar, maxsus portlash yozuvlari va seysmologik tahlillar bilan shug‘ullanishgan. W.B. Joyner tadqiqotlari ko‘pincha tebranishlarning yuzaga kelishi, tarqalishi va bu hodisalarning shahar infratuzilmasiga ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. D.M. Boore yer silkinishlarining empirik va nazariy xususiyatlarini o‘rganishda, ayniqsa kuchli yer silkinishlari natijasida yuzaga keladigan tebranishlarni o‘lchash va tahlil qilishda katta natijalarga erishgan. Uning ishlari, asosan, yer silkinishlarining kuchi, tezligi va spektral xususiyatlari bilan bog‘liq. L. H. Kanai seysmologiya va zilzila muhandisligi sohasida to‘lqinlarni modellashirish va sintetik akselerogrammalar yaratish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. N. A. Ambraseys muhandislik seysmologiyasi yo‘nalishida zilzilalarning inshootlarga ta‘siri bo‘yicha Yevropadagi yetakchi olimlardan biri bo‘lgan. U sintetik akselerogrammalarni yaratish va seysmik xavf tahlillari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. A. K. Kornell seysmik xavfga asoslangan yondashuvni keng

ommalashtirib, ko'plab mamlakatlarda zilzilalar ta'sirini kamaytiruvchi muhandislik ishlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan. V.I. Sokolov ilmiy ishlarida zilzilalar ta'sirida gruntlarning xususiyatlarini baholash bo'yicha muhim izlanishlar olib borgan. A.A. Tikhonov seysmik kuchlanish va gruntlarning dinamik javobini o'rganish bo'yicha ko'plab muhim nazariy tadqiqotlar olib borgan. Y.A. Koval seysmik xavfni baholash va gruntlarning reaksiya spektrini tahlil qilish bo'yicha innovatsion usullarni ishlab chiqqan taniqli olimlardan biridir. N.A. Kostiuk seysmik reaksiya spektrlari va gruntlarning turli geologik sharoitlardagi seysmik ta'siri bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan taniqli olimlardan hisoblanadi. U urning dinamik xususiyatlari, seysmik xavf tahlili va seysmik ta'sirlar natijasida gruntning qanday reaksiyalar berishini o'rganish sohalarida faoliyat yuritgan. A.G. Egorov ilmiy ishlarida gruntlarning seysmik javoblarini o'rganish va ularning reaksiya spektrini aniqlashda muhim natijalar olgan.

O'zbekistonda so'ngi yillarda qurilish maydonlariga seysmik xavfni va seysmik ta'sirni baholash metodologiyalarini ishlab chiqishda Sh.A. Xakimov, T.U. Artikov, V.Yu. Sokolov, V.A. Kondratev, S.A. Tyagunov, A.X. Ibragimov, V.A. Ismailov, R.S. Ibragimov, T.L. Ibragimova, A.S. Yuvmitov, E.M. Yadigarov, M.A. Mirzayev va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bino-inshootlarni loyihalashda sintetik akselerogrammalardan seysmik ta'sir sifatida foydalanish, qurilish maydonlaridagi tabiiy seysmik kuchlarni baholashga imkon beradi. Shunga muvofiq, turli xil grunt sharoitlari uchun sintetik akselerogrammalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish talab etilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi G'.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston va chegaradosh hududlarda joylashgan seysmogen zonalar uchun real va sintetik akselerogrammalar regional bankini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha (2021-2022 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston hududining turli xil grunt sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish maydonlarida kuchli zilzilalarning seysmik ta'sirini ifodalovchi sintetik akselerogrammalarni yaratish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

hozirgi kunda mavjud bo'lgan va qo'llanilayotgan sintetik akselerogrammalarni yaratish texnologiyalarini tahlil qilish va ularni tizimlagan holda mintaqamiz uchun samarali texnologiyani tanlash;

O'zbekiston hududida sodir bo'lgan kuchli zilzilalar parametrlarini tadqiq etish, grunt sharoitlarini baholash uchun instrumental seysmometrik va geofizik dala tadqiqot ishlarini olib borish;

O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlari misolida grunt qatlamlarida seysmik to'liqlarni tarqalishining 3D modellarini ishlab chiqish;

hisoblangan tezlanish jadvallari orqali sintetik akselerogrammalarni tuzish texnologiyasini yaratish;

mintaqamizda sodir bo'lgan zilzilalarning real akselerogrammlar spektrlarini umumlashtirish va o'rtachalashtirilgan spektr asosida sintetik akselerogrammlar texnologiyasini yaratish;

gruntlarning javob spektrlari asosida sintetik akselerogrammlar yaratish;

yaratilgan sintetik akselerogrammlarni zamonaviy muhandislik dasturlari yordamida modellashtirish hamda grunt va binolarni 3D modellarda sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlarining hududlari olingan.

Tadqiqotning predmeti turli xil grunt sharoitlarini hisobga olgan holda sintetik akselerogrammlar yaratish texnologiyasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida geofizik va muhandis geologik tadqiqot usullari, jumladan, mikrotremor usulidan, natijalarni taqqoslash uchun MASW usulidan hamda Strata, Plaxis 3D va Lira Sapr dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turli grunt qatlamlarni seysmik tebranish spektrlari asosida chuqurlik bo'yicha ko'ndalang to'lqin tezlik o'zgarishi aniqlangan va qatlamlarning 3D modellari yaratilgan;

qurilish maydonlarida seysmik ta'sirlarni miqdoriy baholash imkonini beruvchi sintetik akselerogrammlar yaratish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Buxoro shahri hududida tarqalgan gruntlarning seysmik xususiyatlari bo'yicha real zilzilalarning o'rta spektriga asoslangan sintetik akselerogrammlar bazasi ishlab chiqilgan;

sintetik akselerogrammlarni muhandislik dasturlari orqali tahlil qilish natijasida grunt qatlamlarida va bino poydevorlarida yuzaga keladigan maksimal tezlik, tezlanish va siljish qiymatlari baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Qurilish maydoni grunt qatlamlarining seysmik ta'sirga javob spektrlarini umumlashtirgan holda sintetik akselerogrammlarni hisoblash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

Dala eksperimental tadqiqotlar natijasida seysmik tebranish spektrlarini tahlili asosida ko'ndalang to'lqin tezligini chuqurlik bo'yicha o'zgarishi aniqlangan va O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlari misolida grunt qatlamlarining 3D modellari ishlab chiqilgan;

Sintetik akselerogrammlarni zamonaviy dasturlar orqali miqdoriy modellashtirish asosida grunt qatlamlariga va binolarga ta'sir qiladigan seysmik kuchlar baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Dissertatsiya ishi doirasida dala sharoitida gruntlarning seysmik xossalarini aniqlash bo'yicha 1000 dan ortiq nuqtalarda instrumental seysmometrik o'lchov ishlari, hamda respublikamizning yirik shahar hududlarida olib borilgan geologik, muhandis-geologik va geofizik tadqiqot natijalari bilan solishtirilganligi, olingan natijalar MASW usuli bilan taqqoslanganligi, qolaversa yaratilgan akselerogrammlar zamonaviy dasturlar orqali «Strata», «Plaxis 3D», «LIRA-SAPR», "Open Quake" sinovdan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish-loyihalash ishlarida bino-inshootlarga seysmik ta'sir sifatida qo'llaniladigan sintetik akselerogrammlar yaratishda gruntlarning javob spektrlari, tezlanish jadvallari orqali hamda real zilzila akselerogrammlarining umumlashgan o'rta spektrlari asosida sintetik akselerogrammlar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlari hududlarining 100 m chuqurlikdagi qatlamlarining 3D modellari ishlab chiqilganligi, turli xil grunt sharoitlariga mos sintetik akselerogrammlardan bino-inshootlarni loyihalashda, binolarning seysmik ta'sirlarga qanday javob berishini baholashda, bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini baholash orqali seysmik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish maydonlarida seysmik ta'sirni baholash uchun sintetik akselerogrammlar yaratish texnologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turli grunt qatlamlarining xususiy tebranish spektrlari usuli asosida chuqurlik bo'yicha ajratilgan ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezliklarining 3D modeli "Me'mor arxitektura servis" MChJ hamda "Qo'qon loyiha-qurilsh" MChJ loyihalash tashkilotlarining amaliyotiga joriy qilingan (Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 28 yanvardagi 20-06/1013-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilk bor O'zbekiston Respublikasi viloyat markazlari misolida grunt qatlamlarining 3D modellari ishlab chiqilgan, bu olingan natija seysmik ta'sirlarni baholashga imkon yaratgan;

real zilzila yozuvlarining tahlili asosida sintetik akselerogrammlar yaratishning o'rta spektrlar texnologiyasi "Me'mor arxitektura servis" MChJ hamda "Qo'qon loyiha-qurilsh" MChJ loyihalash tashkilotlarining amaliyotiga joriy qilingan (Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 28 yanvardagi 20-06/1013-son ma'lumotnomasi). Natijada, sintetik akselerogrammlar qurilish maydoniga ta'sir qiluvchi seysmik holatni real baholashga imkon yaratgan;

Buxoro shahri hududi uchun real zilzilalarni aks ettiruvchi o'rta spektr texnologiyasiga asosan ishlab chiqilgan sintetik akselerogrammlar bazasi "Me'mor arxitektura servis" MChJ hamda "Qo'qon loyiha-qurilsh" MChJ loyihalash tashkilotlarining amaliyotiga joriy qilingan (Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 28 yanvardagi 20-06/1013 son ma'lumotnomasi). Natijada, Buxoro shahri hududi uchun yaratilgan akselerogrammlar bino-inshootlarni loyihalashga imkon yaratgan;

sintetik akselerogrammlarni muhandislik dasturlari orqali tahlil qilish natijasida yaratilgan 3D modellar "Me'mor arxitektura servis" MChJ hamda "Qo'qon loyiha-qurilsh" MChJ loyihalash tashkilotlarining amaliyotiga joriy qilingan (Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 28 yanvardagi 20-06/1013-son ma'lumotnomasi). Natijada, grunt qatlamlarida va bino poydevorlarida yuzaga keladigan maksimal tezlik, tezlanish va siljish qiymatlarini baholashga imkon yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola, shu jumladan, 1 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkaziladigan tadqiqotlarning dolzarbligi va unga bo'lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga muvofiq kelishi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sintetik akselerogrammalarni yaratish usullarini o'rganilganlik darajasi”** deb nomlangan birinchi bobida Hozirda seysmik harakatlarini prognoz qilish sohasida faqat dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Kuchli harakatlarga oid materiallar yetarli emas, yerning seysmik harakati turlarini tasniflash endigina boshlangan. Bunday tasniflash uchun tebranishlarning ayrim xususiyat, parametrlarini aniqlash kerak, ularning yordami bilan ko'rib chiqilayotgan muammo uchun muhim bo'lgan seysmik tebranishlarning xususiyatlarini kerakli aniqlik bilan tasvirlash mumkin. Y. Nakamura tomonidan olib borilgan tadqiqotlar gruntlarning reaksiya spektrlari va cho'kindi qatlamlar tarkibi haqida muhim izlanishlar olib borgan. H.M. Murakami gruntlarning dinamik xususiyatlari va reaksiya spektrlarini o'rganishda muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan biridir. Ushbu o'rinda F.F. Aptikayev, O.O. Ertelevalar real yozuvlarni masshtablash orqali sun'iy akselerogrammalarni yaratish mavzusidagi ilmiy ishlarida, ya'ni vaqt, tezlik, tezlanish va siljish parametrlarini mahalliy grunt sharoitini hisobga olgan holda sintetik akselerogrammalarni yaratishgan. V.I. Bagdanov, V.M. Grayzer va N.V. Shebalin kabi olimlar kuchli zilzilalar vaqtida seysmogrammalardan foydalangan holda gruntlardagi qoldiq siljish va haqiqiy harakatlarni aniqlash bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. K.W. Kampbellning 1997 yilda chop etilgan maqolasi “Cho'qqi tezlanishining gorizont va vertikal komponentlari, yerning eng yuqori tezligi va psevdomotloq tezlanish javob spektrlari uchun empirik manbaga yaqin so'nish munosabatlari” nomli ishlari bilan tanilgan.

W.B. Joyner va D.M. Boore o'z ilmiy ishlarida yer silkinishlarining empirik va nazariy xususiyatlarini o'rganishda, ayniqsa kuchli yer silkinishlari natijasida yuzaga keladigan tebranishlarni o'lchash va tahlil qilishda katta tajribaga ega. Uning ishlari, asosan, yer silkinishlarining kuchi, tezligi va spektral xususiyatlari bilan bog'liq.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib brogan olimlar K.W. Kampbell, X. Kanai, N. Ambraseys, Allin Kornell, V.I. Sokolov, A.A. Tikhonov, Y.A. Koval, N.A. Kostyuk, A.G. Egorov va boshqalar. Ular gruntlarning reaksiya spektrlari, ularning litologik tarkibi va fizikaviy holatini aniqlashda muhim natijalarni olishgan.


Respublikamizda ushbu ilmiy yo‘nalishda O‘zR FA Seysmologiya institutining olimlari bir qancha maqsadli izlanishlar olib borishgan. Xususan Seysmik xavf va rayonlashtirish laboratoriyasi olimlari T.U. Artikov, R.S. Ibragimov, T.L. Ibragimova, M.A. Mirzayevlar O‘zbekiston Respublikasi hududining $P=90\%$, $P=95\%$, $P=98\%$, $P=99\%$ extimollikdagi o‘rta grunt sharoitini hisobga olgan holda Umumiy seysmik rayonlashtirish (USR-2017) xaritalarini ishlab chiqishgan.

V.A. Ismailov (2018) o‘zining ilmiy ishlarida O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan barcha turdagi gruntlarni fizik-mexanik va seysmik xossalari bo‘yicha sinflarga ajratgan. V.A. Ismailov va A.X. Ibragimovlar (2018) Jizzax viloyati hududida seysmometrik tadqiqotlar natijasida gruntlarning HVSR lari orqali amplituda-chastota xossalarini hisobga olgan holda seysmik zaiflik indeksi (K_g) toifalarga ajratganlar va jadval ishlab chiqishgan.

A.X. Ibragimov o‘z ilmiy tadqiqotlarida sodir bo‘lgan zilzilalarning masofa bo‘ylab so‘nish qonunylari asosida “Intensiv-Map” dasturini ishlab chiqqan. “Kuchli zilziladan ogohlantirish” mobil ilovasi orqali aholiga qisqa soniyalarda respublikaning aniqlangan hududlarida kuchli zilzila kuzatilishi to‘g‘risida tezkor xabarnoma yuborish tizimini ishlab chiqishda ishtirok etgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududining muhandis-geologik va seysmologik sharoitini o‘ziga xosligi”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi hududining muhandis-geologik sharoiti haqida batafsil ma’lumotlar va S.M. Qosimov va b.q. lar tomonidan ishlab chiqilgan 1:1 000 000 miqyosdagi xaritasi keltirib o‘tilgan. Xaritada gruntlarning geologik yoshi, litologik tarkibi, yer osti suvlarining yotish chuqurligi va geologik jarayon va hodisalar keltirilgan. Qolaversa respublika hududida tarqalgan barcha turdagi gruntlarning fizik-mexanik va seysmik xossalarini ifodalovchi V.A. Ismailov tomonidan ishlab chiqilgan jadval berilgan. Shuningdek O‘zbekiston va unga chegaradosh hududlarda sodir bo‘lgan zilzilalarning tarixiy davrdan beri sodir bo‘lgan zilzilalar epitsentrlari xaritasi ko‘rsatilgan hamda T.U. Artikov, R.S. Ibragimov, T.L. Ibragimova va M.A. Mirzayevlar tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekiston hududini umumiy seysmik rayonlashtirishning me’yoriy xaritasi OSR - 2017 MSK-64 makroseysmik shkalasi bo‘yicha, $P = 0,98\%$ ehtimoli uchun 50 yil davomida seysmik ta’sir darajasining intensivligidan oshmasligi uchun qurilgan xarita keltirilgan va respublika hududining seysmikligi baholangan. O‘zbekiston Respublikasi hududining muhandis-geologik va seysmologik sharoitlarini aniqlashda mikrotremor o‘lchovlar ma’lumotlarini qayta ishlashdan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi geologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan gruntning fizik xususiyatlaridan tashqari gruntlarning xususiy tebranish parametrlarini aniqlash. Grunt tebranishlaridagi mikroseyismik to‘lqinlarni o‘lchash uchun “Guralp” seysmometri ishlatildi. Bu seysmometr bir vaqtning o‘zida grunt dinamikasining azimutal va vertikal qismlarini yozib oladigan raqamli uch komponentli seysmometr


hisoblanadi. Bu usulda O'zbekiston Respublikasi hududidagi o'n ikkita shaharlarda o'lchov ishlari olib borilgan va mikrotremor va MASW malumotlari tahlil qilingan (1-rasm).



1-rasm. Mikrotremor va MASW usullar bilan topilgan tezliklar grafigi (Qarshi shahri hududi misolida)

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki mikrotremor va MASW (yuzaki to'lqinlar usuli) usullaridan foydalanilgan holda, 30 m chuqurlik bo'yicha 1000 ga yaqin o'lchov nuqtalardan olingan tezliklar (7-10)% oraliqda bir biridan farqi aniqlandi. O'tkazilgan statistik tahlillar mikrotremor usuli bilan gruntlarning seysmik xususiyatlarini aniqlashda bir muncha qulayliklarga ega bo'lindi.

Mikrotremor usuli yordamida shahar hududlari uchun seysmik to'lqinlarning chuqurlik bo'yicha tezlik tarqalishining 3D modellari ishlab chiqildi (2-rasm).



a) bo'ylama

b) ko'ndalang

2-rasm. Buxoro shahrida bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlar tarqalishining 3D xaritalari

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, birinchi qatlam qalinligi 1.6 va 8.4 m oraliqda o'zgargan, tezliklar mos ravishda bo'ylama to'lqin tezliklari 246 m/s dan 560 m/s nisbatda tarqalgan, ko'ndalang to'lqin tezliklari esa 150 m/s dan 280 m/s oraliqda o'zgargan. Tog' jinslarining zichliklarida ham kichik qiymatlar kuzatilgan. Ikkinchi qatlamda qalinliklari 1.6 m dan 20 m oraliqda o'zgargan, ikkinchi qatlam bo'ylama to'lqin tezliklari 265 m/s dan 1247 m/s oraliqda o'zgargan, ko'ndalang to'lqin tezliklari esa 210 m/s dan 700 m/s oraliqda o'zgargan. Uchinchi qatlam qalinligi (27-100) m oraliqda o'zgarib turadi. Tezliklar esa maksimal qiymatlari bo'ylama to'lqin 2650 m/s ko'ndalang to'lqin esa 1275 m/s qiymatda


o'zgargan. Seysmometrik o'lchovlar natijasida tog' jinslarning xususiy tebranishlari topildi, Gruntlarni qatlamlarga ajratishda seysmik to'lqinlarni tarqalish tezliklari hisobga olindi.

Dissertatsiyaning “**Sintetik akselerogrammalarni yaratish texnologiyalari**” deb nomlangan uchinchi bobida sintetik akselerogrammalar yaratish texnologiyasining uchta usuli keltirigan. 1. Hisoblangan spektral tezlanishlar jadvallari orqali sintetik akselerogrammalarni yaratish; 2. Gruntlarning javob spektrlari asosida sintetik akselerogrammalar yaratish; 3. Sodir bo'lgan zilzilalar akselerogrammalar spektrini umumlashtirish va umumlashtirilgan spektr asosida sintetik akselerogramma yaratish.

1. Hisoblangan spektral tezlanishlar jadvallari orqali sintetik akselerogrammalarni yaratish - hisoblangan spektral tezlanishlar jadvallari orqali sintetik akselerogrammalarni yaratish usulida akselerogrammalarni hisoblash uchun dasturlarga kiritiladigan asosiy ma'lumotlar to'lqin parametrlardir. Bir xil intensivlikdagi turli zilzilalar uchun hisoblangan amplituda Furye spektrlari vaqtga bog'liq bo'lgan Furye ketma-ketligining koeffitsiyentlarini kattalik, masofa va grunt sharoitlari funksiyasi sifatida mos fizik spektrdan olish qobiliyatiga asoslanadi, shu bilan aniqlangan spektral qiymatlar bir xil taqsimlangan tasodifiy o'zgaruvchilar sifatida hisoblanadi. 1-chi ifodada spektral tezlanishlarni hisoblash uchun tenglama ishlatilgan.

$$\begin{aligned} \text{Log PSA} = & b_1 + b_2 M + b_3 M^2 + (b_4 + b_5 M) * \log \sqrt{R_{jb}^2} + b_6^2 + b_7 S_s + b_8 S_A \\ & + b_9 F_N + b_{10} F_R + \varepsilon \sigma \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda, M_W - magnituda, R_{jb} - radius, S_s va S_A - gruntlardagi seysmik tezliklar (V_{S30}), F_N va F_R - o'choq mexanizimi.




3-rasm. Bir xil masofada turli xil magnitudali zilzila spektri

Seysmik to'lqinlarning tarqalish va so'nish xususiyatlarini, shuningdek manbalar va qabul qiluvchilar orasidagi ta'sirlarni tavsiflovchi parametrlarni belgilovchi asosiy omillar gruntlar hisoblanadi. Sintetik akselerogrammalarni hisoblash uchun eng muhim parametrlarga quyidagilar kiradi: zilzilaning o'choq mexanizmi, geometrik nomuvofiqlik parametrlari, chastotaga bog'liq bo'lmagan elastik yutilish, seysmik signal davomiyligining epitsentral masofaga bog'liqligi

kabilar hisoblanadi. Hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan ushbu parametrlarni mavjud zilzila yozuvlaridan hisoblanadi.

Sintetik akselerogrammalar dastur yordamida spektral tezlanishlar jadvalidan tuzilgan (3-rasm). Seismoartif dasturi yordami bilan qayta ishlandi va gruntlarda sodir bo'lish ehtimoli tezlanishiga normalashtiriladi (4-rasm).



4-rasm. Ma'lum bir tezlanishga normalashtirilgan sintetik akselerogramma

2. Gruntlarning javob spektrlari asosida sintetik akselerogrammalar yaratish bunda quyidagi kerakli bo'lgan ma'lumotlar talab qilinadi. 1. Gruntlarning seysmik xossalari bo'yicha toifalari; 2. O'choq mexanizmi; 3. Gruntlarning maksimal tezlanishi; 4. Dinamik koeffitsiyent (d); 5. Dinamik kuchaytirish koeffitsiyenti (β); 6. Javob spektri. Reaksiya spektrlari seysmik qarshilik uchun tuzilmalarni hisoblash nazariyasi va amaliyotida eng muhim, foydali va keng qo'llaniladigan tushunchalardan biridir. Reaksiya spektrlarini hisoblash muammosi batafsil o'rganilgan va samarali hisoblash algoritmlari mavjud. Reaksiya spektrining umumiy qabul qilingan shakli har bir chastotada spektral darajalarni o'rtacha hisoblash yo'li bilan olinadi. Biroq, parametrlash qoidalariga ko'ra, o'lchovsiz parametrlarni qurish uchun o'lchovli miqdorni ya'ni chastotani ishlatish mutlaqo to'g'ri emas (shakli ta'rifi bo'yicha o'lchovsiz). Ushbu usul **“o'rtacha”** spektr darajasining pasayishiga va chastota diapazonining kengayishiga olib keladi. Quyida **javob spektrini hisoblash algoritmini** 2 - ifodada keltirib o'tilgan.

$$\log \tau = 0,15M_s + 0,5 \log R + C_1 + C_2 - 1,3 \pm 0,3, \quad (2)$$

(2) ifodadagi zilzilalarning o'choq mexanizimida sodir bo'ladigan harakatlar $C_1 - 0,25$ siqilish, kengayish $C_1 - 0,0$ siljish $C_1 - (-0,25)$ koeffitsiyentlari bilan belgilanadi va grunt tulariga bog'liq holda ushbu qiymatlar $C_2 - 0,15$ birinchi toyifa, $0,00$ ikkinchi toyifa va $0,4$ uchinchi toyifa gruntlar uchun qabul qilingan.

Shuningdek tebranish davrining davomiyligi (impuls kengligi), maksimal amplitudaning birinchi va oxirgi daqiqalari orasidagi yarim doiraning vaqt davomida o'sish oralig'i. Impuls kengligi τ yarim doira parametri bo'lib xizmat qiladi uning empirik ifodasi keltirilgan (3-ifoda).

$$A_i(t) = A_{max} \left(\frac{3t\tau}{9t^2 - 9t\tau + 4\tau^2} \right), \quad (3)$$


bu yerda, t - vaqt τ - asosiy dovomiylilikning tebranish bosqichlari. F.F. Aptikayevga ko'ra, bu tebranish konverti amplitudasining maksimal darajadan $1/2$ dan oshadigan vaqt oralig'i sifatida belgilanadi.

$$B_{i,2} = B_{i,1} \left(\frac{\beta(T)}{\beta_1(T)} \right), \quad (4)$$

bunda, β -dinamik kuchaytirish koeffitsiyenti, bu erda $\beta_1(T)$, bizning holatlarimizda, umumlashtirilgan dinamik daromad spektri va $\beta_2(T)$ - bu birinchi takrorlash davrida olingan egri chiziq.

$$a_{\beta}^0(t) = A(t) \sum_{i=1}^n B_i \sin(\omega_i t + \varphi_i), \quad (5)$$

(5) ifoda orqali hisoblangan seysmik ta'sirlarni sintez qilish algoritmi, ushbu ishda RB – 06-98 me'yoriy hujjat 3-ilova (Loyihalarni asoslash uchun gruntlarning dastlabki seysmik tebranishlarini aniqlash) tomonidan tavsiya etilgan akselerogramma yaratish usuli qo'llaniladi. Dinamik kuchaytirgich spektriga mos keladigan akselerogrammalarni yozib olish mumkin. Qurilishning loyihalash dasturlarida seysmik tasirni aniqroq baholash uchun uch komponentli akselerogrammalarni sintez qilish va ularning statistik mustaqilligini ta'minlash kerak. Ikkita akselerogramma statistik jihatdan mustaqil hisoblanadi, agar korrelyatsiya koeffitsiyentining mutloq qiymati 0.3 dan oshmasligi kerak. Maksimal gorizontal tebranishning dinamik kuchaytirgich qiymati $\beta X(T)=3.2$. Maqsad, spektrdan 10% og'ishgacha ruxsat beriladi (5-rasm).




5-rasm. Turli xil so'nish qonuniyatlarining javob spektrlari

Grunt javob spektri, geologik qatlamning turli chastotadagi tebranishlarga javob berishini ko'rsatuvchi diagrammadir. Bu spektrda, vaqt bo'yicha tushirilgan amplituda shakli ko'rinishi yoki yer usti xarakatlarining elastik va plastik xususiyatlarini o'zida namoyon qilgan.

Grunt javob spektriga asoslangan sintetik akselerogrammalar loyihalash dasturlarida uch o'q bo'yicha seysmik ta'sirni berishda bir muncha qulayliklar yaratadi (6-rasm).


3. Sodir bo'lgan zilzilalar akselerogrammalar spektrni umumlashtirish va o'rta spektr asosida sintetik akselerogramma yaratish. Seysmik ta'sirni baholashda sintetik akselerogrammalar loyihalanayotgan binolar uchun real seysmik holatni o'zida aks ettirishi kerak, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zilzilalarni ta'sir darajasini orttirib ham, kamaytirib ham ko'rsatmasligi asosiy vazifa hisoblanadi. Sintetik akselerogrammalar yaratishda real zilzila yozuvlaridan foydalanildi. Magnitudasi

$M > 4$ dan yuqori bo'lgan zilzilalar tanlab olindi. Tadqiqotimizda bir nechta seysmik stansiya yozuvlari tahlil qilindi va ikkita mahalliy seysmik stansiyalar tanlab olingan.



6-rasm. Grunt javob spektri asosida yaratilgan sintetik akselerogramma


O'rta spektrni aniqlash uchun 50 ga yaqin real zilzila yozuvlaridan foydalanildi. Bino-inshootlarga seysmik tasirni oldindan baholash uchun uch o'qda seysmik ta'sir beriladi, bino-inshootlarga real seysmik ta'sirni baholash zaruriy omil hisoblanadi. Sintetik akselerogrammalarni uch o'q bo'yicha yaratish talab qilinadi. Shuning uchun real seysmik ta'sirni baholash uchun real zilzila spektrlaridan foydalanildi. O'rta spektr usulida uch komponent bo'yicha real zilzila yozuvlarini birlashtirildi, birlashtirilgan spektrlarning o'rtacha qiymatlari aniqlandi. Uch komponent bo'yicha o'rta spektrga asoslangan sintetik akselerogrammalar yaratildi. Yaratilgan akselerogrammalar ma'lum hududda joylashgan yer yoriqlari va zilzila o'choqlarida sodir bo'ladigan zilzilalarga asoslanadi, 10 ta zilzila o'choq'ining parametrlarini o'zida mujassamlaydi. Bir zilzila o'choq'ida sodir bo'lgan hodisa turli nuqtalarda kuzatildi. Umumlashtirilib o'rta spektr olindi, lekin har bir seysmik stansiyaning epitsentrga nisbatan masofasi, grunt turi va seysmik stansiyalarda o'rnatilgan asboblarning turliligi, bir qancha xatoliklarni keltirib chiqaradi. Ma'lum xatoliklarni bartaraf etish maqsadida ta'sir kuchi seziladigan o'choqlarning zilzila yozuvlarini qayta ishlash natijasida umumlashgan o'rta spektr olindi (7-rasm).



7-rasm. Real zilzila yozuvlarini umumlashtirib o'rta spektrga asoslangan sintetik akselerogramma

